

TA'LIMNING MAZMUN-MOHIYATI, RIVOJLANISH HAMDA KAMOL TOPISHDAGI O'RNI

*Po'latova Sayyoraxon
Qo'rg'on tepe Abu Ali Ibn Sino
nomidagi jamoat salomatligi texnikumi
o'quv metodik bo'lim boshlig'i.*

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta'limning mazmun-mohiyati, rivojlanish hamda kamol topishdagi o'rni, bundan tashqari mavjud ta'lim bajaradigan ko'plab funksiyalar, shu bilan birga bilimlarni o'zlashtirish jarayonlari haqida so'z yuritadi.

Kalit so'zlar: ta'lim mazmuni, funksiyalari, metodikalar, bilim olish usullari, nazariy va amaliy bilim-ko'nikmalar.

KIRISH

Har qanday davlatning qaror topishi, ravnaqi va rivojlanishi unda tashkil etilgan ta'lim tizimiga uzviy bog'liqligini hech kim inkor etolmasligi bejiz emas. Vaholangki, xoh u ijtimoiy-siyosiy, xoh moliyaviy-iqtisodiy, yokida diplomatik jarayon bo'lsin, ta'lim aralashuvvisiz hech bir soha o'sish bosqichiga yetib bora olmaydi. Buning sababi shundan iboratki, hayotimizda mavjud har bir soha rivoji uchun ana shu sohaga doir ham nazariy, ham amaliy bilimlar eng zarur vositalar hisoblanadi. Shuni anglab yetgan har qanday millat, avvalo, ta'limga e'tibor beradi, investitsiya kiritadi. Shunday ekan, ta'lim mazmuni o'zi nimadan iborat. Ushbu termin ishlatilishi bilan ko'pchilikning ko'z oldida, ta'limning maqsadi, ta'lim jarayoni, uni tashkil etish metodika va strategiyalari, o'qitiladigan fanlar, ularning asosiy g'oyalari kelishi bejiz emas. Nafaqat ta'limda, balki har bir ishni amalga oshirishning undan ko'zlangan maqsadi va usullari mavjud. Quyida ta'lim mazmunini chuqurroq anglash uchun ta'limning funksiyalari hamda bilimlarni o'zlashtirish jarayoni haqida so'z boradi.

MUHOKAMA

Ta'lim funksiyalari. "Funksiya" tushunchasi "ta'lim vazifalari" tushunchasiga yaqindir. Ta'lim funksiyasi ta'lim jarayoni mohiyatini ifoda etadi, vazifasi esa ta'limning komponentlaridan biri hisoblanadi. Didaktika ta'lim jarayonining quyidagi uchta funksiyasini ajratib ko'rsatadi: ta'lim berish, rivojlantirish va tarbiyalash.

Ta'lim berish funksiyasi ta'lim jarayonining o'quvchilarda bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat. Ta'lim natijasi sifatida bilimlarining to'laligi, chuqurligi, tizimliliği, anglanganligi, mustahkamligi va amaliy xususiyat kasb etishi muhimdir. Bu kabi holatlar ta'lim jarayonining metodik jihatdan to'g'ri tashkil etilganligini ifodalaydi. Ta'lim jarayonida o'quvchilarda ular tomonidan o'zlashtirilgan nazariy bilimlar asosida hosil qilingan amaliy ko'nikma va

malakalarning shakllanishi ham alohida ahamiyatga ega. Ko`nikma – olingen bilimlarga asoslanib qo`yilgan vazifalar va shartlarga binoan bajariladigan harakatlar yig`indisi. Malaka – ongli xatti-harakatning avtomatlashtirilgan tarkibiy qismi. Umumiy ko`nikma va malakalarga og`zaki va yozma nutqni bilish, axborot materiallaridan foydalana olish, o`qish, manbalar bilan ishslash, referat yozish, mustaqil ishini tashkil etish kabilar kiradi. Ta`limning rivojlantiruvchi funksiyasi ta`lim jarayonida, bilimlarni o`zlashtirish jarayonida o`quvchining rivojlanishi sodir bo`lishini ko`rsatadi. Rivojlanish quyidagi yo`nalishlarda sodir bo`ladi: nutqi rivojlanishi, fikrashi, shaxsning sensorli va harakatlanish sohalari, emosional-irodaviy va ehtiyoj-sababli sohalari rivojlanadi. To`g`ri tashkil etilgan ta`lim shaxsni har doim rivojlantiradi, lekin o`qituvchi va o`quvchining shaxsiy har tomonlama rivojlanishiga qaratilgan maxsus o`zaro munosabatlarida rivojlantirish funksiyasi yanada samaraliroqdir. Bularning hammasi ta`limni tashkil etish faqat bilimlarni shakllantirishga emas, o`quvchini har tomonlama rivojlantirish (birinchi navbatda, aqliy rivojlantirish, aqliy faoliyat usullari, analiz qilish, taqqoslash, turlarga ajratish va boshqalarni kuzatish, xulosa chiqarish, ob`ektlarning muhim belgilarini ajrata bilish, faoliyat maqsadi va usullarini aniqlashni bilishga o`rgatish, uning natijalarini tekshirishni bilish malakasini rivojlantirish)ga xizmat qilishini anglatadi. Ta`lim jarayoni tarbiyalovchi xususiyatga ham ega. Tarbiya va ta`lim o`rtasidagi bog`liqlik ob`ektiv va qonuniy hisoblanadi. Biroq shaxsni ta`lim jarayonida tarbiyalash tashqi omillar (oila, mikromuhit va boshqalar)ning ta`siri tufayli qiyin kechadi.

Tarbiyalash funksiyasi. Ta`limning tarbiyalovchilik xususiyati turli ijtimoiy tuzum hamda sharoitda ham yaqqol namoyon bo`ladi. Tarbiyalash funksiyasi ta`lim mazmuni, shakli va metodlarining mohiyati bilan belgilanadi va o`qituvchi hamda o`quvchilar o`rtasidagi munosabatlarni tashkil etish jarayonida etakchi o`rin tutadi. Ta`lim jarayonida shaxsning ma`naviy-axloqiy va estetik tasavvurlari, xulq-atvori va dunyoqarashi shakllantiriladi. Ta`limning tarbiyalovchilik xususiyati, eng avvalo, ta`lim mazmunida aks etadi. Biroq, shuni ham e'tiborda tutish kerak-ki, barcha o`quv fanlari ham birdek tarbiyalovchilik imkoniyatiga ega emas. Gumanitar va estetik fanlarning bu boradagi imkoniyatlari yuqori. Ta`lim jarayonida tarbiyaning ikkinchi omili o`qituvchi va o`quvchilarning munosabatlari, sinfdagi psixologik muhit, o`qish jarayoni ishtirokchilarining o`zaro munosabatlari, o`quvchilarning idrok etish faoliyatlariga o`qituvchining rahbarligi hisoblanadi. Zamonaviy pedagogika o`qituvchi va o`quvchilar o`rtasidagi munosabatning eng qulay usuli sifatida demokratik usulini e'tirof etadi. Bu usul ta`lim jarayonida o`quvchilar shaxsini hurmat qilish, ularning xohish-istiklari, qiziqishlarini inobatga olinishini anglatadi.

Bilimlarni o`zlashtirish jarayonining tuzilishi. O`quvchilar o`quv idrok etish faoliyatlarini boshqarishga o`rganib olish uchun bilimlarni o`zlashtirish jarayoni tuzilishini yaxshi tasavvur etish, o`quvchilar tomonidan bilimlarning egallash

bosqichlarini bilishi zarur: idrok etish, o‘quv materialini anglab etish, mustahkamlash, amaliy faoliyatida bilimlarini qo‘llash. Birinchi bosqich idrok etish hisoblanadi. Psixologiyadan ma’lumki, idrok etish aniq maqsadga yo‘naltirilgan anglash jarayoni bo‘lib, u tanlash xususiyatiga ega. SHuning uchun birinchi navbatda o‘quvchilarga mavzuni, ya’ni, ularning nimani o‘rganishlari (masalani qo‘yish)ni tushuntirib berish kerak. SHu asosida o‘quv materiali bilan dastlabki tanishish amalga oshiriladi. U haqiqiy mavjud yoki hayoliy predmet, hodisa, vaziyatlarni kuzatish, mumkin bo‘lgan tajribalarni o‘tkazishdan iborat bo‘ladi. Birinchi bosqich o‘quvchi qaysi hodisa va voqealarni, predmetlarni o‘rganish haqida etarlicha tasavvurga ega bo‘lganida va o‘quv masalasini tushunib etganda yakunlanadi. Ikkinci bosqich – o‘quv materialini anglab yetish. U ma’lumotlarning nazariy jihatlarini ajratib olish va analiz qilishdan iborat. Bunda asosiy mazmunni topish, tushunchani ajratib olish, ularning belgilarini asoslab berish, tushuntirish materialini xususiyatini aniqlab olish, misollar va tushuntiruvchi dalillar to‘plamini o‘rganib chiqish kerak. Bu vaziyatda bilimlar o‘rtasidagi tizimlilik muhim ahamiyatga ega. Unda o‘quvchi eng asosiy, ikkinchi darajali hamda qo‘srimcha, tushuntiruvchi elementlarni ajratib ko‘rsatsin. O‘quvchi o‘quv masalasini echish usulini tushunsa, bilimlar o‘rtasidagi tizimni anglab etsa ushbu bosqich yakunlangan sanaladi. Uchinchi bosqich – eslab qolish va mustahkamlash. Bu bosqich o‘zlashtirilgan bilimlarini uzoq vaqt davomida saqlab qolishdan iborat. Unda idrok etish faoliyati ko‘proq mashqlar, mustaqil reproduktiv va ijodiy masalalar xususiyatiga ega bo‘ladi. Nazariy material, tushuncha, qoida, isbotlar turli xil mashqlarda takrorlanadi. O‘qituvchi o‘quvchilar topshiriqlarni tushunib bajarishlarini kuzatib borishi kerak. Ular matnlarni mexanik ko‘chirib olishlari, topshiriqlarni bajarishlari, qoida va tushunchalarni chuqur anglab etmay bajarishlari mumkin. Bosqich yakunida o‘quvchilar nazariy materiallarni biladilar va ulardan mashqlarni bajarish, masalani echish, teoremani isbotlashda foydalanishni biladilar. Ularda o‘quv malakalari va ko‘nikmalar shakllantirilgan bo‘ladi. To‘rtinchi bosqich bilim, ko‘nikma va malakalarni amaliy faoliyatda qo‘llashdan iborat bo‘ladi. Bilimlarini qo‘llash o‘rganilayotgan materialning mazmuni xususiyatiga qarab faoliyat turli shakllari va ko‘rinishlarida amalga oshirilishi mumkin. Bu o‘quv mashqlari, laboratoriya ishlari, tadqiqot topshiriqlari, maktab yer maydonidagi ishlar bo‘lishi mumkin.

Ta’lim qonuniyatları va tamoyilları. O‘quv jarayonida amal qiluvchi barcha qonuniyatlar umumiy va xususiy tarziga ikki guruhga ajratiladi. Amal qilinishiga ko‘ra yaxlit didaktik tizimni qamrab oladigan qonuniyatlar umumiy, amal qilinishiga ko‘ra faqat alohida tarkibiy qismlariga taalluqli bo‘lgan qonuniyatlar esa xususiy (aniq) deb ataladi. I.P.Podlsiy ta’lim jarayonining quyidagi umumiy qonuniyatlarını ajratib ko‘rsatadi:

1. Ta'lim maqsadi quyidagilarga bog'liq: jamiyatning rivojlanish sur'ati va darajasi, jamiyatning talablari va imkoniyatlari hamda pedagogika fani va amaliyotining rivojlanganligi va imkoniyatlari darajasi.

2. Ta'lim mazmuni quyidagilarga bog'liq: ta'limning ijtimoiy ehtiyojlari va maqsadlari, ijtimoiy va ilmiy-texnik taraqqiyot sur'ati, o'quvchilarning yoshi imkoniyatlari, ta'lim nazariyasi va amaliyotining rivojlanish darajasi, shuningdek, o'quv yurtining moddiy-texnik va iqtisodiy imkoniyatlari.

3. Ta'lim sifati (samaradorligi) quyidagilarga bog'liq: avvalgi bosqich mahsuldarligi va mazkur bosqichda erishilgan natijalar, o'rganilayotgan material xususiyati va hajmi, o'quvchilarga tashkiliy-pedagogik ta'sir ko'rsatish hamda o'quvchilarning bilim olishga qobiliyatlarini va ta'lim vaqtini.

4. Ta'lim metodlari samaradorligi quyidagilarga bog'liq: metodlarni qo'llashda bilimlari va ko'nikmalari, ta'lim maqsadi, ta'lim mazmuni, o'quvchilarning yoshi, ta'lim olish imkoniyatlari, moddiy-texnik ta'minot hamda o'quv jarayonini tashkil etish.

5. Ta'limni boshqarish mahsuldarligi quyidagilarga bog'liq: ta'lim tizimida qayta aloqalarning intensivligi va tuzatish, ta'sir ko'rsatishlarning asoslanganligi.

6. Ta'limni rag'batlantirish samaradorligi quyidagilarga bog'liq: ta'limning ichki rag'batlari (sabablari) hamda tashqi (ijtimoiy, iqtisodiy, pedagogik) rag'batlari.

Zamonaviy fanga aniq qonuniyatlar ko'plab soni ma'lumdir. Ular qatoriga quyidagilar kiradi:

- 1.Didaktik qonuniyatlar.
- 2.Gnoseologik qonuniyatlar.
- 3.Psixologik qonuniyatlar.
- 4.Kibernetik qonuniyatlar.
- 5.Sotsiologik qonuniyatlar.
- 6.Tashkiliy qonuniyatlar.

Didaktik tamoyillar (didaktika tamoyillari) o'quv jarayonining umumiy maqsadlari va qonuniyatlariga binoan uning mazmuni, tashkiliy shakl va metodlarini belgilovchi boshlang'ich qoidalardir. Tamoyil (yunoncha «principium») – biror-bir nazariyaning asosi, negizi, asosiy boshlang'ich qoidasi; boshqaruvchi g'oya, faoliyatning asosiy qoidasi; umumlashtirilgan talab.

XULOSA

Ta'lim mazmuni mavzusi ta'lim jarayonining asosiy jihatlaridan biri bo'lib, u o'quvchilarni tarbiyalash va ularga zarur bilimlarni berish uchun muhim ahamiyatga ega. Ta'lim mazmuni, avvalo, o'qitiladigan fanlar, metodikalar va pedagogik yondashuvlar to'g'risida batafsil ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Maqolada ta'lim mazmunining asosiy komponentlari, ya'ni bilimlar, ko'nikmalar va kompetensiyalar shuningdek, ularning talabalarning rivojlanishiga qanday ta'sir

ko'rsatishi haqida so'z yuritildi. Ta'kidlash joizki, zamonaviy ta'lismazmuni nafaqat akademik bilimlarni qamrab oladi, balki hayotiy ko'nikmalarni ham rivojlantirishga qaratilgan. Shuningdek, ta'lismazmunini yangilanishi va innovatsion metodlar bilan boyitilishi zarurligi qayd etildi. Bu esa o'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatini oshirishda va ularni zamonaviy jamiyat talablariga tayyorlashda muhim rol o'yndaydi. Umuman olganda, ta'lismazmuni muvozanatli ravishda shakllantirilishi lozim va bu jarayonda jamiyatning ehtiyojlari hamda global tendentsiyalarni hisobga olish kerak. O'qituvchilar va ta'lismashkilotlari ushbu yo'nalishda izlanish olib borishlari zarur bo'ladi. Natijada sifatli ta'lismashzimi yaratilib, kelajak avlodning muvaffaqiyatli rivojlanishiga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. M.X.Toxtaxodjaevaning umumiylarini tahriri ostida. Pedagogika darslik. T.: O'zbekiston faylasuflari Milliy jamiyati, 2010.
2. Qodirova F.R, Toshpo'latova SH.Q, Kayumova N.M., Agzamova M.N. "Maktabgacha pedagogika" T.: Tafakkur, T- 2019. Darslik.
3. D.R. Babaeva. "Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi" T.: "Barkamol avlod fayz" 2018 y. Darslik.
4. Takomillashtirilgan "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi, T- 2022 y.
5. Мирзиёев Ш.М. Конун устуворлиги – инсон манфаатларини таъминлаш тараққиёти вахалқ фаровонлигининг гарови. "Ўзбекистон"
6. Азизова Зироат. "CONCEPTUAL FUNDAMENTALS OF PREPARING CHILDREN FOR SOCIAL PROTECTION" Yosh tadqiqotchi Jurnal 1 (5) 404-410, 2022
7. Azizova Ziroat Bahodirovna "International trends in the development of the preschool education system." Open Access Repository 9.11 (2022): 236-240. INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE INTERDISCIPLINARI RESEARCH ISSN 2022
8. 3.Азизова , Экологическое воспитание дошкольников с помощью форм и методов обучения.Педагогика и психология в современном мире.теоретические и практические 2022